

O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI VA ZARURIYATI

Olimjon Odilovich Qodirov

Andijon davlat chet tillar instituti

tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11500798>

Annotatsiya: Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyaning o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishda tutgan o'rni, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishning o'ziga xos jihatlari, shuningdek maktabning pedagogik jarayonida "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlarini isloh qilishda kommunikativlikning ahamiyati xususida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Kommunikativlik, umumiy o'rta ta'lim, o'quvchi, kompetensiya, maktab amaliyoti, qobiliyat, shaxsning rivojlanishi, refleksiya.

Abstract. This article discusses the role of communicative competence in the comprehensive development of students, the specific aspects of the development of communicative competence, as well as the importance of communicative competence in reforming the "teacher-student" relationship in the pedagogical process of the school.

Keywords: Communicativeness, general secondary education, student, competence, school practice, ability, personality development, reflection.

Абстрактный. В данной статье рассматривается роль коммуникативной компетентности во всестороннем развитии учащихся, конкретные аспекты развития коммуникативной компетентности, а также значение коммуникативной компетентности в реформировании отношений «учитель-ученик» в педагогическом процессе школы.

Ключевые слова: Коммуникабельность, общее среднее образование, учащийся, компетентность, школьная практика, способности, развитие личности, рефлексия.

Hozirda barcha ta'lim tizimi oldiga qo'yilayotgan talablarga ko'ra bo'lajak kadrlarni kasbiy-kommunikativ faoliyatga tayyorlashni takomillashtirishni talab qiladi, ya'ni ularda kasbiy malaka, o'zgaruvchan sharoitga tez moslashish qobiliyati, kommunikativ kompetentlik, o'zining kommunikativ bilimlarini doimiy ravishda mustaqil to'ldirib borish va ulardan ijodiy foydalanish ko'nikmalari rivojlangan bo'lishi lozim. Buning uchun esa umumiy o'rta ta'lim jarayonidan o'quvchilarni kommunikativ faoliyatga tayyorlab borish, ularda turli kompetensiyalarni shakllantirish maqsadga muvofiq.

Noyob kapital sifatida qadrlanayotgan ta'limning quyi bosqichlaridan ta'lim samaradorligini oshirish, takomillashtirilgan mexanizmlarni joriy etish, sifatli ta'lim natijasida o'quvchi-yoshlarni kelajak hayotdagi kommunikativ faoliyatga tayyorlash umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quv-tarbiya jarayonining asosiy vazifalaridan biri sanaladi. Umumiy o'rta ta'lim o'quvchilarida amaliy faoliyat tajribasini tarkib toptirish, turli kompetensiyalarni shakllantirish orqali ijtimoiy hayotga samarali tayyorlash jarayonlarini tashkil etishga oid izlanishlar salmog'i ortib borayotgan pallada, o'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ham o'z dolzarbligiga ega.

Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda o'quvchilarga turli fanlarni o'qitishda kompetensiyaviy yondashuv keng tatbiq etilmoqda. Shuningdek, ularga fanga oid bilim, ko'nikma, malakalar berishning o'zi yetarli emasligi, hosil qilingan bilim, ko'nikma va malakalarni turli vaziyatlarda amaliy qo'llashni shakllantirib borish lozim ekanligi o'z isbotini topdi. Shu sababdan

kompetentsiyalarga bo'lgan talab uzluksiz ta'limning barcha bosqichlariga kirib bordi hamda amalda foydalanilmoqda.

Tadqiqot jarayonida ish mazmunini batafsil yoritib berish maqsadida olimlarning "kompetentsiya" va "kommunikativ kompetentsiya" mazmuniga oid fikrlarini tahlil qilgan holda uning o'ziga xos xususiyatlari ajratib ko'rsatish maqsad qilindi.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar va rivojlangan davlatlarda ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar orqali, balki shaxsning ta'lim jarayonida egallagan kompetentsiyalari orqali aniqlanishi ta'kidlanadi. Kompetentsiya – bu o'quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, usullari, texnologiyasi va bilim oluvchining malakasi asosida shakllanadi.

"Kompetentsiya" lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi.¹ Kompetentsiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni birlikda samarali tashkil eta olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

"Kompetentsiya tushunchasi tarkibiy qismlar sifatida bilim, ko'nikma va shaxsiy fazilatlar (tashabbuskorlik, maqsadga muvofiqlik, maqsad qo'yish qobiliyati, mas'uliyat, bag'rikenglik va boshqalar), ijtimoiy moslashuv (jamoada va undan tashqarida ishlash qobiliyati), tanqidiy fikrlash",² shuningdek, tanlangan sohada professional faoliyat tajribasi kabilar belgilandi.

Pedagog olimlar R.Safarova va R.Jo'rayevlar tomonidan "kompetentsiya tushunchasiga quyidagicha ta'rif taklif etilgan (lot. compete-erishyapman, munosibman, loyiqman):

- 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish o'rgani) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav va boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi;
- 2) u yoki bu sohadagi bilimlar, tajribalar;
- 3) shaxsning biror bir sohadan habardorligi, shu sohani bilish darajasi.³

N.M.Muslimovning ta'kidlashicha inglizcha "competence" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq "kompetentsiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatni ifoda etishga xizmat qiladi".⁴

Professor B.X.Xodjayev "kompetentsiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar mazmuni kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini ta'kidlab, ushbu tushunchani umumiy o'rta ta'lim bilan bog'lagan holda "kompetentsiya – ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (me'yorlar)dan ham o'zib ketishidir"⁵, deb ta'rif beradi.

K.J.Risqulovanning fikriga ko'ra, "kompetentsiya" u yoki bu kasb egasiga zarur bo'lgan kasbiy qonuniyatlar, tamoyillar, talablar, qoidalar, burch, vazifa va majburiyatlar, shuningdek, shaxsiy deontologik me'yorlar yig'indisini anglatadi.⁶

¹ Педагогический словарь // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337 с.

² Мироненко Е.С. Компетенции XXI века vs образование XXI века. Вопросы территориального развития. Вып. 2(47). 2019.

³ Safarova R., Jo'rayev R. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015. – B. 184.

⁴ Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.

⁵ Xodjaev B.X. Umumta'lim maktabi o'quvchilarida tapixiy tafakkurni modepnizatsiyalashgan didaktik ta'minot vositasida rivojlantirish: ped. fanl. doktori ...diss. –T.: 2016. – 290 b.

⁶ Pisdulova K.J. Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilari cotsilingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped. fanl. doktori (DSc). ...diss. avtoref. – T.: 2017. – B. 14.

Tadqiqot ishi “kommunikativ kompetentsiya” tushunchasi mohiyatini pedagogik nuqtai nazardan o‘rganish va tahlil etish, tadqiqot mazmunini yanada kengroq yoritishga xizmat qiladi. Innovatsion axborot asrida axborot-ma’lumotlardan imkon qadar keng darajada foydalanish, ularni o‘z istak-ehtiyojlari doirasida boshqara olish turli xalqlar bilan faol kommunikativ aloqalarni amalga oshirishni taqazo qilmoqda. Bugungi kunda atrofimizni o‘rab turgan axborot oqimi har bir insonning ta’lim olish jarayoni hamda kundalik hayoti mazmunli va muvaffaqiyatli kechishi uchun zarur ma’lumotlarni izlash, ulardan o‘zi uchun foydalisini ajratib olish va o‘zlashtirishni talab etadi. Bunda aynan bir nechta tillarni bilish, tildan amaliy faoliyatda foydalanishning ahamiyatini tushunish va tayanch kompetentsiyalarning muhim unsuri sifatida e’tirof etilgan kommunikativ kompetentsiyani egallash lozim.

Kommunikativ kompetentsiya – murakkab kommunikativ ko‘nikmalarga egalikni o‘z ichiga olib, u muloqotdagi madaniy normalar va cheklovlar, bilim, ta’lim, aloqa sohasi, urf-odatlar, etiket, odoq-axloq va kasbga bog‘liqlik kabi doiralarda o‘rganilgan.

Kommunikativ kompetentsiya – bu muloqot qobiliyatlari, bilim, ko‘nikma va malakalar, turli aloqalar sohasida hissiy va ijtimoiy tajribani o‘z ichiga olgan shaxsning umumiy kommunikativ xususiyatidir.

O‘z navbatida kommunikativ qobiliyat quyidagilardan iborat:

- muloqot qilish kerak bo‘lgan kommunikativ vaziyatning ijtimoiy-psixologik prognozini berish;
- muloqot jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan dasturlash, kommunikativ vaziyatning o‘ziga xosligiga asoslangan;

- kommunikativ vaziyatda aloqa jarayonlarini ijtimoiy-psixologik boshqarishni amalga oshirish.

Kommunikativ kompetentsiya umumiy madaniyatni va uning professional faoliyatida o‘ziga xos namoyonlarini sintez qiluvchi integral sifatdir. Kommunikativ kompetentsiyaning shartlaridan biri, muayyan qoidalar va talablarni bajarishdir. Ushbu qoidalarning eng muhimlari quyidagilar:

- 1) umumiy qoida – bu fikr tushunilmagan yoki to‘liq anglanmagan bo‘lsa, aloqa o‘rnatishning iloji bo‘lmasligi;
- 2) tushunish uchun doimiy tayyorgarlik qoidasi – ko‘pincha semantik va shaxsiy to‘siqlar mavjud bo‘lib, ular ko‘pincha xabarlarini to‘liq va noto‘g‘ri tushunishga olib kelishi;
- 3) aniqlik qoidasi – noma’lum, noaniq so‘zlardan qochish va begona yoki yuqori ixtisoslashgan atamalardan vaziyatdan kelib chiqib foydalanish;
- 4) signallarni nazorat qilish qoidasi – faqat nutq va xabarning mazmunini nazorat qilish yetarli emas. Bundan tashqari, uning tashqi eskort – yuz ifodalar, imo-ishoralar, intonatsiya va pozitsiyasi bilan bog‘liq bo‘lgan qismida uning shaklini nazorat qilish.
- 5) joy va vaqt qoidasi – har qanday xabarning samaradorligi o‘z vaqtida amalga oshiriladigan eng munosib vaziyatni tanlashda keskin oshishini nazarda tutish;
- 6) ochiqlik qoidasi – yangi vaziyatlarning ta’siri ostida o‘z nuqtai nazarini qayta ko‘rib chiqishga tayyor bo‘lishni, shuningdek, suhbatdoshning nuqtai nazarini qabul qilish va hisobga olish;
- 7) faol va konstruktiv tinglash qoidasi – samarali kommunikatsiyalarning asosiy sharti;
- 8) fikr-mulohaza qoidasi – bu kommunikativ jarayonning asosiy maqsadiga erishishni ta’minlaydi, ya’ni o‘zaro bir-birini tushunish.⁷

⁷ Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс:
https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения: 29.09.2019.

Kommunikativ kompetensiya asosini quyidagilar tashkil qiladi:

- muloqotni tashkil qilish;
- shaxslararo muloqot ko'nikmasi;
- muloqotni, kontakti saqlash, teskari aloqani o'rnatish;
- muloqot natijalarini analiz qilish.⁸

Keng axborot makoniga ega bo'lgan zamonaviy jamiyat ta'lim tizimi o'quvchi-yoshlardan kommunikativlikni talab qilmoqda. Bunda esa tilni o'rgatishning yuqori texnologiyalarini jadal rivojlantirish, uning doirasida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlanishi kutilmoqda. Shuningdek, zamonaviy jamiyatning eng muhim ustuvorliklaridan biri ham – bu shaxsning kommunikativ kompetensiyaga egaligi sifatida e'tirof etilmoqda. Har bir o'quvchi shaxs sifatida rivojlanishi, o'zini o'zi anglashi va shaxsiy o'sishi, shakllanishi, uning ijobiy o'zini o'zi tushunishi, avvalo, unda shaxsiy kommunikativ kompetensiyani shakllanganlik darajasiga bog'liq.

O'qituvchi, avvalo, o'quvchining kommunikativ kompetensiyasi shakllangan yoki qisman shakllangan bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratishi va uning keyingi rivojlanishida e'tiborga olinishi lozim. Shuningdek, o'quvchilarning yoshi va o'qitishning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, bosqichma bosqich va kommunikativ kompetensiyani shakllantirish diagnostikasini amalga oshirish lozim.

Umumiy o'rta ta'limda kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari mavjud bo'lib, bu asosan o'quvchilarning psixologik xususiyatlari va pedagogik muhitga bevosita bog'liqdir.

O'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlash, jamoaning shaxsiy va guruhiy xususiyatlariga asoslangan metodologiyasini yaratishga imkon beradi. Shu bilan o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning aniq usullarini tanlash samarali bo'ladi.

Bugungi kunda til o'rgatishda, ta'lim berishda bolaning rivojlanishiga, o'zini-o'zi rivojlantirishida qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ta'limning bunday paradigmasiga o'tish bilan o'qituvchiga sifat jihatdan yangi talablar qo'yiladi.

Xo'sh, yangi maktab til o'rgatishining shakllanib, rivojlanishida bizga Qanday o'qituvchi mutaxassislar kerak? Pedagogik ta'lim oldida bolaning ichki dunyosini tushunadigan, muloqotga kirisha oladigan munosabatlarni yaratishga intiladigan, bolalar bilan yetarli darajada pedagogik muloqotga tayyor bo'lgan mutaxassislar kerak. O'quvchining qobiliyatlarini maksimal darajada yuzaga chiqarish, maktab jarayonida uning hissiy erkinligini ta'minlash uchun professional insonparvarlik holatini o'qituvchining mafkuraviy qarashlarda o'z aksini topishi zarur.

Shu nuqtai nazardan, ta'lim-tarbiyada o'zaro munosabatlariga davlatimiz tomonidan ko'proq e'tibor qaratilmoqda. O'zaro bir-birini tushunish pedagogikada eng samarali usul hisoblanib, unda munosabatlarning eng to'liq intilishiga erishiladi, ishtirokchilar muloqotning asosiy shakli bo'lgan muloqot orqali o'z pozitsiyalarini kelishib oladilar. Muloqot holatida talabalarga nisbatan insonparvarlikni egallashda va o'zlarining kasbiy vazifalarini to'g'ri yaratilgan, muloqot orqali amalga oshirishda qodir bo'lgan o'qituvchilarga bo'lgan ehtiyoj kelajakdagi kommunikativ kompetensiya o'qituvchilarini maqsadli rivojlantirish muammosini qo'yadi.

⁸ Закинов Э.Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогические образование и наука. – № 6. – Москва, 2014. – С. 82.

Kommunikativ kompetensiya muammosi zamonaviy pedagogika fani va o'quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko'satadi. Muammoning nazariy jihatdan ishlab chiqilishiga qaramasdan maktabning pedagogik jarayonida "o'qituvchi-o'quvchi" munosabatlari tubdan o'zgarishlarga duchor bo'ladi deb aytish mumkin emas. Keng ko'lamda olib borilayotgan qator taqiqotlar bu muammoning zamonaviy pedagogika fani va o'quv amaliyoti uchun ahamiyatli ekanligini ko'rishimiz mumkin. O'qituvchi o'z o'quvchilari uchun axloqiy xulq-atvor va yuksak darajadagi muloqot madaniyatiga ega bo'lgan madaniyatli pedagog bo'lishi kerakligini ko'rsatadi.

Bu muammoning holati o'rganilayotgan paytda bir qator bir-biriga zid bo'lgan holatlarga duch kelamiz va ular quyidagilar:

- 1) bolalar bilan o'zaro munosabatga kirishishda amalga oshiriladigan an'anaviy yondashuv;
- 2) zamonaviy maktabning amaliy muloqotga kirisha oladigan o'qituvchilarga ehtiyoji;
- 3) o'quvchilarning o'qituvchilar bilan samarali ishlar olib borish istagini yaratish qobiliyati.

Bir-biriga zid bo'lgan bunday holatda bizga kommunikativ kompetensiya nima sababdan yoki nega kerak bo'ladi?

Kommunikativlikni shaxsning ijtimoiy amaliyotidan butun katta amaliyotda qo'llashni, ikkinchi ta'rif esa kommunikativlikni tushunishni asos ko'rsatmasdan torayishga olib kelyapti. Insoniyat madaniyatining bir qismi bu kommunikativ munosabatdir. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy hayotda yechilishi kerak bo'lgan muammolarni talabalar adabiy asarlarni o'qib, teatrda borib yoki kino tomosha qilib ham kommunikativ tajribani egallab bo'ladi. Kommunikativ kompetensiya insonning o'ziga, tabiiy va ijtimoiy olamda sodir bo'layotgan voqealarga bo'lgan munosabatlarining tizimini tartibga solib beradi.

Kommunikativ kompetensiyaning vazifalari nimalardan iborat? Vazifalaridan biri shuki, holatlarni yetarli darajada tahlil qilib, talqin qilishni ta'minlab berish kerak bo'lgan bilim resurslariga ega bo'lishdir. Kommunikativ kompetensiyalarni o'rganishning yana bir usullaridan bu – texnik vositalardan foydalanib, tashkil etilgan o'yinlarni kuzatish yoki bu o'yinlarni dars davomida foydalanib ko'rish, olingan ma'lumotlarni guruh ichida tahlil qilish kerak.

Umuman olganda aytish mumkinki, kommunikativ kompetensiya boshqa kishilar bilan kerakli aloqalarni o'rnatish va unumli foydalanib, shu holatda saqlab qolish tushunilib, kompetensiya samarali muloqotni ta'minlab beradigan bilim, ko'nikma, malakalar jamlanmasi hisoblanadi. Bu turdagi kompetensiyada aloqada bo'lgan sheriklarni tushunish va to'g'ridan-to'g'ri o'zaro ta'sirlashish orqali javob berishning ongli tajribasidir. Shaxs rivojlanishi bilan kommunikativ kompetensiya takomillashish jarayoni bog'liqligi yuzaga keladi.

References:

1. Закинов Э.Ю. Коммуникативность как базис человеческого общения // Педагогические образование и наука. – № 6. – Москва, 2014. – С. 82.
2. Педагогический словарь // Под. ред. В.И.Загвязинского, А.Ф.Закировой. – М.: Академия, 2008. – 337 с.
3. Мироненко Е.С. Компетенции XXI века vs образование XXI века. Вопросы территориального развития. Вып. 2(47). 2019.
4. Safarova R., Jo'rayev R. Pedagogika: ensiklopediya. II jild. – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. – 2015. – B. 184.

5. Муслимов Н.А., Уразова М.Б., Эшпулатов Ш.Н. Касб таълими ўқитувчиларининг касбий компетентлигини шакллантириш технологиялари. – Т.: Fan va texnologiya, 2013. – 160 б.
6. Ходжаев В.Х. Umumta’lim maktabi o’quvchilarida tapixiy tafakkurni modernizatsiyalashgan didaktik ta’minot vositasida rivojlantirish: ped. fanl. doktori ...diss. –Т.: 2016. – 290 б.
7. Pisdulova K.J. Bo’lajak ingliz tili o’qituvchilari cotsiolingvistik kompetentligini shakllantirish tizimi: ped. fanl. doktori (DSc). ...diss. avtoref. – Т.: 2017. – В. 14.
8. Коммуникативная компетентность. Электронный ресурс:
9. https://ru.wikipedia.org/wiki/Коммуникативная_компетентность. Дата обращения: 29.09.2019.

